# □□ Bahodir Jalolov – ikki karra Olimpiada chempioni!



Bokschimizning erishgan gʻalabasi bilan Oʻzbekiston xalqini, xususan, Surxon vohasi ahlini hamda Bahodirning onasi va murabbiylarini tabriklaymiz.

Yurtimiz bayrogʻini dunyoning eng nufuzli musobaqasida yuksakka koʻtarganing uchun senga ming rahmat, yozgi Olimpiya oʻyinlarining ikki  karra chempioni – Bahodir!

Bahodir Jalolovning final jangini surxondaryoliklar koʻtarinki kayfiyatda kuzatib borishdi. Xususan, Termiz shahridagi “Nuroniylar maskani”da Surxondaryo viloyati hokimi Ulugʻbek Qosimov boshchiligidagi sektor rahbarlari, vohalik faollar jangni tomosha qilib, Bahodirni qoʻllab-quvvatlab turishdi.